

**O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTONDA PEDIATRIYANING RIVOJLANISHI
VA MANNAP ATAMATOVICH MIRZAMUXAMMEDOVNING
PEDIATRIYAGA QO'SHGAN O'RNI**

Eraliyeva Shohsanam Muzaffar qizi
Toshkent Tibbiyot akademiyasi talabasi

Annatsiya; Ushbu maqolada siz O'rta Osiyo va O'zbekistonda pediatriyaning rivojlanishi hamda "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi Mannap Atamatovich Mirzamuxammedov haqida ma'lumot olasiz. 1942-yili, Jahon urushi davom etayotganligiga qaramay, O'zbekiston Sog'liqni saqlash Xalq komissariatida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rinbosarlik lavozimi ta'sis etildi va uni tajribali ilmiy xodim, keyinchalik O'zbekiston ayollari orasida birinchi pediatrprofessor darajasiga yetishgan S.N.Yo'ldosheva boshqara boshladi.

Kalit so'zlar: "Sog'lom avlod uchun" ordeni, Bag'dod, Damashq, Hamadon, Buxoro, Samarqand, Astrobod, Varshava, Toronto

Аннотация: В этой статье вы получите информацию о развитии педиатрии в Средней Азии и Узбекистане, а также о Маннапе Атаматовиче Мирзамухаммедове, обладателе ордена «За здоровое поколение». В 1942 году, несмотря на продолжавшуюся мировую войну, в Наркомате здравоохранения Узбекистана была учреждена должность заместителя по охране материнства и детства, и ему было присвоено звание опытного научного сотрудника, а впоследствии и первого профессора-педиатра среди узбекских женщин. Достигшая зрелости С.Н. Юлдошева стала управлять.

Ключевые слова: Орден «За здоровое поколение», Багдад, Дамаск, Хамадан, Бухара, Самарканд, Астробад, Варшава, Торонто.

Annotation: In this article you will receive information about the development of pediatrics in Central Asia and Uzbekistan, as well as about Mannap Atamatovich Mirzamuhammedov, winner of the Order "For a Healthy Generation". In 1942, despite the ongoing world war, the position of deputy for the protection of motherhood and childhood was established in the People's Commissariat of Health of Uzbekistan, and he was awarded the title of experienced researcher, and subsequently the first pediatrician professor among Uzbek women. Having reached maturity S.N. Yuldosheva began to manage.

Key words: Order "For a Healthy Generation", Baghdad, Damascus, Hamadan, Bukhara, Samarkand, Astrobod, Warsaw, Toronto.

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan serfarzandlikni yoqtiradigan, «o'nta bo'lsa o'rni boshqa» qabilida iloji boricha naslni ko'paytirishga intiladigan xalq hisoblanadi.

«Avesto»da ham xalqimizning ana shu olijanob fazilati tangri azdon tomonidan olqishlangan. Zardusht Axura Mazdadan: «Serfarzand xonadonga nima berasan?» deb soʻralganda, u: «Bunday odamlarni oʻz him oyamga olaman, hayotini farovon, rizqini moʻl qilaman», deb javob beradi. Ushbu din aqidasi koʻra, katta oilalar jamoa himoyasida saqlangan, bir yoʻla 2 - 3 tadan farzand koʻrgan oilalar tuya bilan mukofotlangan, ularga doimiy nafaqa belgilangan. Yer yuzida inson zurriyotining koʻpayishiga qarshi chiqib, qasddan turmush qurmay yurgan qiz qopga solinib, 25 darra bilan kaltaklangan, uylanmasdan yurgan erkak doimiy temir kam ar bogʻlab yurishga majbur qilingan. Umuman, serfarzand oilalar jamoada katta obroʻga, alohida imtiyozlarga ega bolishgan. Kitobda oila pokligi, shaxsiy poklik, bogʻ-rogʻlar, qabristonlar barpo etish qonun-qoida lari ham bayon etilgan. Qabristonlar hududidan 50 qadam narigacha mevali daraxtlar oʻtkazm aslik, ziroat ekinlari ekmaslik qatʻiy talab qilingan. Qabristonlar hududiga archa va meva bermaydigan daraxtlarni oʻtkazishgagina ijozat berilgan. «Avesto»da mingdan ortiq dorivor oʻsimliklar nomi keltirilgan, bemorlarni davolashning usullari koʻrsatilgan, dori tayyorlash yoʻlari bayon qilingan, tabib qasam yodi va tabobat ramzi boʻlmish zahar sochayotganilon ilk bor shu asarda bitilgan va chizib ifodalangan. Shuni ham alohida taʻkidlash joizki, Movarounnahr ilm-fanning hamma sohalari boʻyicha kishilik jamiyatining asosiy markazi boʻlgan. Ar-Roziy, Ibn Sino kabi jahonshum ul tabiblarning shusarzamindan yetishib chiqqanligi bejiz emas. Oʻrta Osiyoda taxminan VII — IX asrlar oraligʻida tibbiyotga oid juda koʻp ishlar amalga oshirildi. Bular jumlasiga yirik savdo yoʻlarida joylashgan shaharlar — Bagʻdod, Damashq, Hamadon, Buxoro, Samarqand, Astrobodda qurilgan kasalxonalar, Samarqandda 1066- yilda faoliyat koʻrsatgan «Tabobat bilim maskani» madrasalarini misol keltirish mumkin. Bulardan tashqari, oʻsha davrda Abu Bakr arRoziy, Abu Ali ibn Sino kabi Sharqning buyuk allomalari tibbiyotga olamshumul hissa qoʻshishgan.

Ibn Sino oʻzining asarlarida bolalarning tomir urishidagi xususiyatlar, quyonchiq, qoqshol kasalliklari, ularni farqlash, bolalardagi gelmintoqlar (gijja kasalliklari) va koʻpgina boshqa kasalliklar haqida ham maʼlumotlar qoldirgan. Shularni hisobga olganda Ibn Sinoni ham pediatriyaning asoschilaridan biri desak, mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Oʻrta asrlarda Osiyoda anchagina rivojlanishga erishgan tibbiyot ilmi XV III-X IX asrlarga kelib feodal tuzum taʼsirida juda orqada qolib, tabobat maktablari yoʻq boʻlib ketdi. Tarixchilarning yozishicha, xalq tabobati uyushmagan holda boʻlib, tabiblik sanʼati otadan meros sifatida qoldirilgan, barcha bilim va malakalar boshqalardan sir tutilar edi. Oʻrta Osiyoning XIX asr boshlaridagi 5mln aholisiga atigi 102 ta tabib va feldsherlar xizmat koʻrsatar edi. Bolalar orasida qizamiq, qizilcha, boʻgʻma, koʻkyoʻtal va boshqa kasalliklar juda keng tarqalgan boʻlib, taxminiy maʼlumotlarga qaraganda, XX asr boshlarida oʻzbekistonda har mingta tugʻilgan boladan 350-400 taga yaqini bir yoshga tolmasdan oʻlib ketardi.

O‘zbekistonda xalq sog‘lig‘ini saqlash tizimi 1919-yilning avgustidan, ya’ni Toshkentda Tibbiyot instituti tashkil etilgan vaqtdan boshlandi. 1920-yilning oktabrida Turkiston Sog‘liqni saqlash xalq komissariati qoshida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘limi tashkil etildi. Mahalliy tibbiyot xodimlarini tayyorlash ishi 1920-yili Turkiston Davlat universiteti qoshida tibbiyot fakulteti tashkil qilinishi bilan boshlandi. Ana shu fakultetda dastlabki bolalar kasalliklari kafedrasini tashkil etildi

1942-yili, Jahon urushi davom etayotganligiga qaramay, O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash Xalq komissariatida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha o‘rinbosarlik lavozimi ta’ sis etildi va uni tajribali ilmiy xodim, keyinchalik O‘zbekiston ayollari orasida birinchi pediatrprofessor darajasiga yetishgan S.N.Yo‘ldosheva boshqara boshladi. U ning rahbarligida bolalarga pediatriya yordami ko‘rsatish, tibbiyot tarmoqlarini tashkil etish, milliy mutaxassislar tayyorlash ishi ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Pediatriya sohasida ancha bilimli va yosh olimlar yetishib chiqib boshladi. Vatanimiz pediatriyasining rivojlanishida uzoq yillar bolalar nafas a’zolari kasalliklarini o‘rgangan, sobiq Ittifoq davrida o‘zbek pediatrlari orasidan birinchi TFA sining muxbir a’zosi darajasiga yetishgan, professor S.Sh.Shamsiyevning xizmatlari beqiyosdir. S.Sh.Shamsiyev bolalarni ovqatlantirish, bolalarda yurak, me’da-ichak kasalliklari, zotiljam va boshqa bir qator pediatriyaning dolzarb muammolari bo‘yicha ilmiy ishlar olib bordi. Uning «Bolalarni sindromlari bo‘yicha davolashning asosiy qoidalari», «Bolalarda klinik elektrokardiografiya», «Bolalar shifokorlari faoliyatida shoshilinch davolash», «U chastka pediatrlari qo‘llanmasi», «Bolalarda surunkali enterokolit» va boshqa yirik asarlari hozirgi kunda ham pediatrlar uchun dastur ilmal bo‘lib kelmoqda.

Mannap Atamatovich Mirzamuxammedov 1908-yil tavnallud topgan. Mannap atamatovich Mirzamuxammedov o‘z faoliyatida katta yo‘l bosib o‘tdi. 1943 yilda Toshkent Davlat Tibbiyot institutini tugatib, “Bolalar kasalliklari” kafedrasida aspirant sifatida qoldirilgan va shu yerda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1946 yildan 1954 yilgacha - ushbu kafedrada assistent, keyin dotsent, 1952 yildan esa ayni paytda Toshkent davlat tibbiyot instituti bolalar poliklinikasi bosh shifokori bo‘lib ishlaydi. 1955-1960 yillarda Mannap Atamatovich Samarqand tibbiyot instituti rektori lavozimida ishlagan. 1960 yildan 1963 yilgacha Toshkent tibbiyot malakasini oshirish institutiga rahbarlik qilgan. Mannap Atamatovich O‘zbekiston pediatriya ilmiy-tadqiqot institutining tashkilotchisi va birinchi direktori bo‘lib, 1966-1975 yillarda unga rahbarlik qilgan. 1975 yilda M. A. Mirzamuhamedov doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Mannap Atamatovich yuksak burch hissi, ulkan mehnatsevarlik va mas’uliyat bilan ajralib turardi. U talabalar va yosh shifokorlarni tayyorlash va tarbiyalashga ko‘p vaqt va kuch sarfladi. Uning ma’ruzalari va klinik raundlari ayniqsa chuqur va amaliy edi. Mannap Atamatovich 150 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 2 ta monografiya muallifi. Uning rahbarligida 6 ta doktorlik va 30 ta nomzodlik

dissertatsiyalari tayyorlandi. M.A.Mirzamuxamedov rahbarligidagi bolalar kasalliklari kafedrasida xodimlari ham bolalik davridagi allergiya va nefropatiya muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan. Ular birinchi bo'lib allergik kasalliklar va nefropatiyalarni davolash va oldini olish bo'yicha diagnostika mezonlari, tavsiyalar berishga imkon beradigan faktlarni qo'lga kiritdilar. Tadqiqot materiallari simpozium va konferentsiyalarda, shuningdek, xalqaro darajada (Varshava, Toronto) taqdim etilgan. Mannap Atamatovich doimiy ravishda ilmiy-pedagogik faoliyatini katta ijtimoiy ish bilan uyg'unlashtirib bordi. U O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligining Bolalarga tibbiy-profilaktika yordami kengashi a'zosi, O'zbekiston bolalar shifokorlari jamiyati raisining o'rinbosari, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Shoshilinch tibbiy yordam bo'limining pediatriya bo'yicha bosh maslahatchisi bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi. Mannap Atamatovich mamlakatimizda va xorijda o'tkazilgan ko'plab kongresslar, konferensiyalar, simpoziumlarning faol ishtirokchisi bo'lgan. Professor Mannap Atamatovich Mirzamuhammedovning xizmatlari yuqori hukumat mukofotlari, "Sog'lom avlod uchun" ordeni va 1-darajali medallar bilan taqdirlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. J.Eshqobulov, A.Mahmudov. Bolalar kasalliklari fani.
2. K.A.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. Bolalar kasalliklari fani. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.
3. K.A.Сотникова, В.В.Гавришова. Неонатология
4. S.S.Esonturdiyev, M.E.Qarshiboyeva. «Bolalar va o'smirlar gigiyenasi»
5. G.Jalolov, S.Tursunov. «Bolalar kasalliklari va ulaming anatomik-fiziologik xususiyatlari».
6. T.Umarova, A.Qayumova, M.Ibrohimova. «Hamshiralik ishi»
7. N.P.Shabalova. «Bolalar kasalligi».
8. M.S.Ziyayeva, I.Pirimbetova. «Hamshiralik ishi mutaxassisligi bo'yicha amaliyot standartlari»
9. A.C.Ефимов. «Энциклопедия семейного врача».